




## TOSHKENT VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2020-yil yanvar-may)

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o‘shishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko‘proq tajriba orttirishga imkon beradi.

2020-yil yanvar-may oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 1 629,5 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 267,2 mln. AQSh dollariga yoki 14,1 % ga kamaydi.


Mamlakatimizda ko‘pchilik faoliyat sohalari to‘xtab qolganligi inobatga olinib, korxonalar va tashkilotlarga davlatimiz tomonidan bir qator imtiyoz va qulayliklar yaratib berilmoqda. Xususan, davlat soliqlarining ma’lum bir muddatga uzaytirilishi va belgilangan vaqtda qisman bo‘lib to‘lanishi, eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha ham qulaylik va yengilliklar yaratilishi savdo aloqalarining o‘shishiga xizmat qiladi.






TSAda eksport hajmi 559,0 mln. AQSh dollariga (o'zgarish sur'ati - 68,7 %) va import hajmi 1070,5 mln. AQSh dollariga (o'zgarish sur'ati – 98,8 %) yetdi. Hisobot davrida 511,6 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

## TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-may, mln. AQSh dollari)



## TASHQI SAVDO AYLANMASINING O'ZGARISH SUR'ATLARI (2019-yil yanvar-mayga nisbatan, % da)





## TOSHKENT VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ULUSHI YUQORI BO'LGAN DAVLATLAR (2020-yil yanvar-may, mln. AQSh dollari)


Davlatlar nomlari	TSA	Eksport	Import	Ulush, % da
Rossiya Federatsiyasi	351,9	78,0	273,9	21,6
Qozog'iston	304,0	57,3	246,7	18,7
Xitoy Xalq Respublikasi	253,8	62,2	191,6	15,6
Turkiya	242,4	206,5	35,9	14,9
Koreya Respublikasi	84,0	4,6	79,4	5,2
Germaniya	39,9	0,9	39,0	2,5
Tojikiston	34,3	16,0	18,2	2,1
B.A.A.	33,8	33,3	0,5	2,1
Afg'oniston	31,1	31,1	0,0	1,9
Braziliya	23,2	0,0	23,2	1,4
Ukraina	19,1	12,0	7,1	1,2
Qirg'iziston Respublikasi	16,7	8,7	8,0	1,0
Ozarbayjon	16,6	5,6	10,9	1,0
Litva	14,6	0,1	14,5	0,9
Italiya	14,4	1,7	12,7	0,9
Hindiston	12,8	0,6	12,2	0,8
Irlandiya	12,1	0,0	12,1	0,7
Niderlandiya	12,0	7,9	4,1	0,7
Singapur	11,8	8,7	3,0	0,7
Belarus	11,5	4,8	6,7	0,7



Viloyatda tashqi savdoni qo‘llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2020-yilning yanvar-may oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 46,6 % ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasi 2019 yilning shu davriga nisbatan 91,7 % ni tashkil etdi.

Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2019-yilning yanvar-may oylarida 56,3 % ni, 2020-yilning ushbu davrida tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 53,4 % ni tashkil qilgan bo‘lib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 18,6 % ga kamaydi.

## TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING ULUSHLARI (2020-yil yanvar-may, % hisobida)




## TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (2020 yil yanvar-may, mln. AQSh dollari)



MDH davlatlaridan Ukraina bilan faol tashqi savdo balansi hamda boshqa davlatlardan (qo'shni davlatlardan tashqari) esa Turkiya va Birlashgan Arab Amirliklari bilan faol tashqi savdo balansi kuzatilganini ko'rish mumkin.

TSAda eng yuqori ulush Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Xitoy Xalq Respublikasi va Turkiya davlatlari hissasiga to'g'ri keldi.






## TOSHKENT VILOYATINING EKSPORTI (2020-yil yanvar-may)

Xalqaro integratsiyaning kamayishi hamda davlatlar o'rtasidagi chegaralarda taqiq davom etayotganligi sababli mamlakat eksportining barqaror o'sishiga bevosita o'z ta'sirini ko'rsatib, eksport salohiyatining pasayishiga olib kelmoqda. Hozirga kunda davlat tomonidan eksportyorlarni qo'llab-quvvatlash va eksportbop mahsulotlarni yaratishda imtiyozlar hamda iqtisodiy ko'mak berilmoqda. 2020-yil yanvar-may oylari yakuni bilan 559,0 mln. AQSh dollari qiymatdagi (2019-yilning shu davriga nisbatan 68,7 %) tovar va xizmatlar eksport qilindi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,4 % ni tashkil etib, bular asosan qora va rangli metallar (56,3 %), boshqa turdagi tovarlar (21,6 %), oziq-ovqat mahsulotlari (13,5 %), paxta tolasi (2,2 %), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (3,5 %) shuningdek, mashina va uskunalar (2,2 %) guruhlarini hissasiga to'g'ri kelmoqda.





## MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLAR KESIMIDA EKSPORT TARKIBI (2020-yil yanvar-may)

Tarkibi	Mln. AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami eksport</b>	559,0	187,2	371,9	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
<b>Paxta tolasi</b>	12,5	0,0	12,5	2,2	0,0	3,3
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari</b>	75,5	50,0	25,5	13,5	26,7	6,9
<b>Kimyo mahsulotlari va buyumlari</b>	19,8	14,3	5,5	3,5	7,6	1,5
<b>Qora va rangli metallar, ulardan tayyorlangan buyumlar</b>	314,9	31,6	283,3	56,3	16,9	76,2
<b>Energiya manbalari va neft mahsulotlari</b>	-	-	-	-	-	-
<b>Mashina va asbob-uskunalar hamda ularning qismlari</b>	12,3	6,1	6,2	2,2	3,3	1,7
<b>Xizmatlar</b>	3,2	0,6	2,6	0,6	0,3	0,7
<b>Boshqalar</b>	120,7	84,5	36,2	21,6	45,2	9,7






## MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTINING O'SISH SUR'ATLARI (2020-yil yanvar-may)

2020-yilning yanvar-may oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida sezilarli o'zgarishlar qayd etilmadi, biroq shuni ta'kidlash joizki, 2019-yilning yanvar-may oylariga nisbatan, oziq-ovqat mahsulotlari hamda kimyo mahsulotlari va buyumlarida o'sish kuzatildi.

Tarkibi	2019-yilning shu davriga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami</b>	<b>68,7</b>	<b>74,6</b>	<b>66,1</b>
shujumladan:			
Paxta tolasi	11,7	39,9	11,6
Oziq-ovqat mahsulotlari	109,9	95,7	155,0
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	162,6	167,5	151,3
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	-	-	-
Qora va rangli metallar va buyumlar	65,5	33,5	73,3
Mashina va asbob-uskunalar	65,9	91,6	51,5
Xizmatlar	71,5	51,2	78,2
Boshqalar	99,3	96,1	107,6








**VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR  
DAVLATLARNING ULUSHI  
(2020-yil yanvar-may)**

Asosiy hamkor  
davlatlar

Ulushi 86,7 %

Boshqa hamkor  
davlatlar

Ulushi 13,3 %





## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismidan biri bo'lgan 50,4 mln. dollar qiymat ega 107,3 ming tonnadan ziyod qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik mahsulotlari eksport qilingan. Bu 2019-yilning shu davriga nisbatan qiymatda – 4,0 % kamaygan va naturada – 2,2 barobarga o'sgan. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 33,2 mln. AQSh dollariga teng 93,0 ming tonnadan ortiq sabzavot (qiymatda 111,1 % o'sgan), shuningdek 13,1 mln. AQSh dollari qiymatidagi 9,9 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi (qiymatda 19,3 % ga kamaygan).

### 2020-yil yanvar-may, mln. AQSh dollari

<b>Meva va rezavorlar</b>	<b>Uzum</b>	<b>Qovun va tarvuzlar</b>	<b>Yeryong'og'lar</b>	<b>Sabzavotlar</b>
9,9 ming tonna	3,9 ming tonna	0,085 ming tonna	0,36 ming tonna	93,0 ming tonna
13,1 mln. AQSH dollari	3,7 mln. AQSH dollari	0,039 mln. AQSH dollari	0,42 mln. AQSH dollari	33,2 mln. AQSH dollari

Mamlakatimizda eksport qilinayotgan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik mahsulotlar sifati va hajmi yanada ortib bormoqda. Jumladan, 2020-yilning yanvar-may oylarida sabzavotlarning eksport hajmi 33,2 mln. AQSH dollariga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 11,1 % o'sgan.




## TOSHKENT VILOYATINING IMPORTI (2020-yil yanvar-may)

Mamlakatimizda faoliyati yuritmayotgan korxonalar va tashkilotlar holati o'rganilib, xususan ishlab chiqarish korxonalariga import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarishda davlatimiz tomonidan moddiy va moliyaviy yordamlar berilmoqda.

Joriy yilning yanvar-may oylari mobaynida import hajmi 1 070,5 mln. AQSh dollari (2019-yilning shu davriga nisbatan o'zgarish sur'ati 98,8 %) tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob-uskunalar hamda ularning qismlari (34,8 %), boshqa turdagi tovarlar (23,0 %), qora va rangli metallar (14,1 %), oziq-ovqat mahsulotlari (14,4 %) hamda kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (7,7 %) hisobiga to'g'ri keldi.





**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLAR KESIMIDA  
IMPORT TARKIBI  
(2020-yil yanvar-may)**

Tarkibi	mln. AQSh dollari			umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami import</b>	<b>1070,5</b>	<b>572,6</b>	<b>497,9</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:						
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari</b>	154,0	126,7	27,3	14,4	22,1	5,5
<b>Kimyo mahsulotlari va buyumlari</b>	82,4	19,3	63,1	7,7	3,4	12,7
<b>Energiya manbalari va neft mahsulotlari</b>	47,4	47,0	0,4	4,4	8,2	0,1
<b>Qora va rangli metallar, ulardan yasalgan buyumlar</b>	151,4	102,2	49,1	14,1	17,9	9,9
<b>Mashina va asbob-uskunalar</b>	372,5	74,0	298,5	34,8	12,9	59,9
<b>Xizmatlar</b>	16,9	2,3	14,6	1,6	0,4	2,9
<b>Boshqalar</b>	246,0	201,1	44,9	23,0	35,1	9,0

Importning eng katta ulushi, jumladan, boshqa turdagi tovarlar (35,1 %), oziq-ovqat mahsulotlari (22,1 %), shuningdek qora va rangli metallar (17,9 %) MDH mamlakatlariga to‘g‘ri keladi, boshqa xorijiy mamlakatlardan esa eng katta ulush mashina va asbob-uskunalar (59,9 %), kimyo mahsulotlari va buyumlari (12,7 %) hissasiga to‘g‘ri keladi.




## MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTINING O'ZGARISH SUR'ATLARI (2020-yil yanvar-may, % hisobida )

Tarkibi	2019-yilning shu davriga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami</b>	<b>98,8</b>	<b>99,2</b>	<b>98,4</b>
shujumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari	79,4	103,3	38,3
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	94,3	64,7	109,6
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	3 m.	3,2 m.	44,7
Qora va rangli metallar, ulardan tayyorlangan buyumlar	85,8	70,0	161,5
Mashina va asbob-uskunalar	112,2	152,7	105,3
Xizmatlar	134,5	92,2	144,8
Boshqalar	92,6	94,4	85,6





## VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2020-yil yanvar-may)



Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Xitoy Xalq Respublikasi, Koreya Respublikasi, Germaniya, Turkiya va Braziliya hamkor davlatlaridan jami import hajmi 889,6 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, bu umumiy import hajmining 83,1 % ini tashkil qiladi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi**  
Tel.:(71) 230-86-59